

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.FM.55.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

QALANDAROVA DILDORA ABDULLAYEVNA

$(A)sh_m$ VA $(B)sh_m$ FUNKSIYALARNING EKVIVALENTLIGI

01.01.01 – Matematik analiz

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch shahri – 2025 yil

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
physical-mathematical sciences**

Qalandarova Dildora Abdullayevna

$(A)sh_m$ va $(B)sh_m$ funksiyalarning ekvivalentligi..... 3

Каландарова Дилдора Абдуллаевна

Эквивалентность функций $(A)sh_m$ и $(B)sh_m$ 19

Kalandarova Dildora Abdullayevna

Equivalence of functions $(A)sh_m$ and $(B)sh_m$ 35

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 38

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.FM.55.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

QALANDAROVA DILDORA ABDULLAYEVNA

$(A)sh_m$ VA $(B)sh_m$ FUNKSIYALARNING EKVIVALENTLIGI

01.01.01 – Matematik analiz

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch shahri – 2025 yil

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.2.PhD/FM1048 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch Davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ik-mat.urdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayev Baxrom Ismoilovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Shoimqulov Baxodir Allaberdiyevich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Atamuratov Alimardon Abdirimovich
fizika-matematika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Urganch Davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.FM.55.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "01" mart soat 16 : 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (998 62) 224-66-11, faks: (998 62) 224-67-00, e-mail: ik-mat.urdu@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Urganch Davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (D-765 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Manzil: 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (998 62) 224-66-11, faks: (998 62) 224-67-00. e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "17" fevral kuni tarqatildi.

(2025-yil "17" fevral dagi 2 raqamli reyestr bayonnomasi).



G'.O'. O'razboyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, o'rinbosari, fizika-matematika fanlari doktori

A.A. Reyimberganov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari nomzodi

B.A. Babajanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, fizika-matematika fanlari doktori

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida matematik analiz, mexanika va fizika sohalarida olib borilayotgan ko'plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar potentsiallar va plyuripotentsiallar nazariyasi masalalariga keltiriladi. Potentsiallar va plyuripotentsiallar nazariyasida kompleks o'zgaruvchili funksiyalar, m -subgarmonik funksiyalar, $\mathbb{C}^n$ kompleks fazodagi kuchli m -subgarmonik $\left((B)sh_m\right)$ funksiyalar va n o'zgaruvchili haqiqiy Evklid fazosidagi m -qavariq funksiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa $(B)_m$ -subgarmonik funksiyalar nazariyasi kompleks analizning muhim va tez rivojlanayotgan qismlaridan biri, m -qavariq funksiyalar esa qavariq geometriyaning muhim qismi hisoblanadi. Plyuripotentsiallar nazariyasi kompleks tekislik va ko'p o'lchovli kompleks fazoda qurilib, kompleks dinamik sistemalar, funksiyalar nazariyasi, mexanika va matematik fizika masalalarini hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu nazariyaning asosiy tushunchalari kuchli m -subgarmonik $\left((B)sh_m\right)$ funksiyalar, m -polyar to'plamlar, Dirixle masalasi, Grin funksiyasi kabilar mos ravishda, klassik analitik funksiyalar, garmonik funksiyalar nazariyasidagi kabi aniqlanadi, ammo ularning umumlashmasi bo'lganligi va ko'p o'lchovli kompleks fazoning murakkab tuzilishi tufayli ulardan tubdan farq qiladi hamda zamonaviy matematikada dolzarb masalalarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu sababli $(B)_m$ -subgarmonik va m -qavariq $(m - cv)$ funksiyalar sinflarini yanada chuqur o'rganish ushbu sohadagi muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Hozirgi kunda jahonda kompleks tekislik hamda ko'p o'lchamli kompleks fazoda m -subgarmonik va $(B)_m$ -subgarmonik funksiyalar bilan bog'liq masalalarni yechishda, $(A)_m$ -subgarmonik $\left((A)sh_m\right)$ va $(A)_m$ -qavariq $\left((A)_m - cv\right)$ funksiyalar sinfini aniqlash hamda ularning muhim xossalarini o'rganishga bog'liq muammolarni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. m -subgarmonik $(m - sh)$ funksiyalar asosida $(A)_m$ -subgarmonik funksiyalar sinfini tadqiqi ko'p o'lchamli kompleks analizda plyuripotentsiallar nazariyasining m -subgarmonik va $(B)_m$ -subgarmonik funksiyalar bilan bog'liq muammolarni o'rganishda maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda amaliy tatbiqqa ega bo'lgan fundamental fanlarga, xususan plyuripotentsiallar nazariyasida subgarmonik funksiyalar sinflarini o'rganishga e'tibor kuchaydi. Bu borada amaliy tadbiqqa ega bo'lgan plyuripotentsiallar nazariyasining zamonaviy muammolariga, jumladan ko'p o'lchamli kompleks fazoda m -subgarmonik va $(B)_m$ -subgarmonik funksiyalar bilan bog'liq masalalarni tadqiq

qilishga alohida e'tibor qaratildi. Buning natijasida $(A)_m$ -subgarmonik va $(A)_m$ -qavariq funksiyalar sinflarini qurish, bunday funksiyalarning muhim xossalarini o'rganishdashda bir qator muhim natijalarga erishildi. Matematika, fizika va tadbqiqiy matematika sohalarida xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish oliy ta'lim muassasalari faoliyatining asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi¹. Ushbu qaror ijrosini ta'minlashda subgarmonik funksiyalar nazariyasini, $(A)_m$ -subgarmonik va $(B)_m$ -subgarmonik funksiyalar nazariyasi rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu dissertatsiya ishida olib borilgan tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" tasdiqlash to'g'risidagi PF-6097-son Farmoni, 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi "2022 - 2026 - yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni hamda 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Matematika, mexanika va informatika" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahonda subgarmonik va plyurisubgarmonik funksiyalar sinfi ko'pgina mamlakat olimlari E.Bedford, B.A.Teylor, Z.Bloskiy, P.Lelon, A.Sadullaev, Y.Sichyak, M.A.Alan va boshqalar tomonidan bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. 2000-yilning boshlarida B.Abdullayev m -subgarmonik sinfidan kichikroq $(A)_m$ -subgarmonik funksiyalar sinfini qarab, bu sinfda potentsiallar nazariyasini qurish g'oyasini ilgari surdi. 2005 yilda Z.Bloskiy tomonidan esa $(B)_m$ -subgarmonik funksiyalar sinfi o'rganilgan va bu sinfning bir qator muhim xossalarini isbotlagan. Shundan keyin $(B)_m$ -subgarmonik funksiyalar sinfida potentsiallar nazariyasi Sadullaev va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi "Matematika sohasida ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4708-son qarori.

Abdullayevlar tomonidan qurilgan. Keyinroq bu nazariya S. Dinev va S. Kolodzey, S.Y. Li, X.Ch. Lu, N.C. Nguyenlar tomonidan juda yaxshi rivojlantirilgan.

A.Sadullaev $m = 2$ da $(B)_m$ -subgarmonik va $(A)_m$ -subgarmonik funksiyalar sinflari ustma-ust tushishini isbotlagan va ixtiyoriy $1 \leq m \leq n$ larda ham bu sinflar ustma-ust tushadimi, degan muammoni qo'yadi.

S.Dinev tomonidan A.Sadullaev gipotezasi $n \leq 7$ va ixtiyoriy m lar uchun ijobiy ekani isbotlangan va $n \geq 11$, $m = 3$ bo'lgan hollar uchun bu gipoteza o'rinli bo'lmasligi ko'rsatilgan. Ammo $n = 8, n = 9, n = 10$ bo'lgan hollarda yuqoridagi gipoteza o'rinli bo'lishi yoki o'rinli bo'lmasligi ko'rsatilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universiteti Matematik tahlil kafedrasining "Kompleks potentsiallar nazariyasi" mavzusidagi ilmiy tadqiqot rejalari bo'yicha amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi $(A)_m$ -subgarmonik va $(B)_m$ -subgarmonik funksiyalarning, shuningdek m -qavariq va $(A)_m$ -qavariq funksiyalarning ustma-ust tushish shartlarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

yuqoridan yarim uzluksiz funksiyalar uchun $(A)_m$ -subgarmonik sinfini aniqlash va ularning ba'zi muhim xossalarini o'rganish;

$(A)_m$ -subgarmonik va $(B)_m$ -subgarmonik funksiyalar sinflarining ustma-ust tushish shartlarini o'rganish;

$(A)_m$ -qavariq funksiyalar sinfini aniqlash;

$(A)_m$ -qavariq va $(A)_m$ -subgarmonik funksiyalar sinflari orasidagi bog'liqlikni o'rnatish;

$(A)_m$ -qavariq va m -qavariq funksiyalar sinflarining ustma-ust tushish shartlarini o'rganish.

Tadqiqotning obyekti $(A)_m$ -subgarmonik funksiyalar, $(B)_m$ -subgarmonik funksiyalar, m -qavariq funksiyalar, $(A)_m$ -qavariq funksiyalar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti A.Sadullaev gipotezasi, Dekart teoremasi, m -subgarmonik funksiyalar, m -plyurisubgarmonik funksiyalar, Gessianlardir.

Tadqiqotning usullari Dissertatsiya ishida chiziqli algebra usullari, potentsiallar nazariyasi, $(B)_m$ -subgarmonik funksiyalar nazariyasi uslublaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ikki marta uzluksiz differensiallanuvchi funksiyalar sinfida $n = 10$, $m = 3$ holda $(A)_m$ -subgarmonik va $(B)_m$ -subgarmonik funksiyalar sinflarining ustma-ust

tushmasligi; $n = 9, m = 3$ va $n = 8, m = 3$ bo'lgan hollarda esa bu sinflarining ustma-ust tushishi isbotlangan;

yuqoridan yarim uzluksiz funksiyalar sinfida $(A)_m$ -subgarmonik funksiyalarni aniqlash imkonini beruvchi chiziqlilik xossasining o'rinli emasligi ko'rsatilgan;

lokal integrallunuvchi funksiyalar sinfida $(A)_m$ -subgarmonik va $(B)_m$ -subgarmonik funksiyalar sinflarining ustma-ust tushishi haqidagi teoremlar isbotlangan;

m -plyurisubgarmonik funksiyalarga asoslangan holda ikki marta uzluksiz differentsiallanuvchi $(A)_m$ -qavariq funksiya ta'rif kiritilgan;

ikki marta uzluksiz differentsiallanuvchi $(A)_m$ -qavariq va $(A)_m$ -subgarmonik funksiyalar ta'riflaridan foydalanib, bunday funksiyalar sinflari orasidagi bog'liqlikni ifodalovchi teorema isbotlangan;

ikki marta uzluksiz differentsiallanuvchi funksiyalar sinfida $n = 9, m = 3$ va $n = 8, m = 3$ bo'lgan hollarda $(A)_m$ -qavariq va m -qavariq funksiyalar sinflarining ustma-ust tushishi isbotlangan;

ikki marta uzluksiz differentsiallanuvchi funksiyalar sinfida $n = 10, m = 3$ bo'lgan holda $(A)_m$ -qavariq va m -qavariq funksiyalar sinflarining ustma-ust tushmasligi, ya'ni $n \geq 10$ holda bu sinflarning turlicha ekanligi ko'rsatilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Dissertatsiya ishida isbotlangan $(A)_m$ -subgarmonik va $(B)_m$ -subgarmonik funksiyalarning tengligi haqidagi teoremlardan potentsiallar nazariyasida va matematik fizikada qo'llash imkoniyati mavjud.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya natijalarini isbotlashda matematik fizika, potentsiallar nazariyasi, plyuripotentsiallar nazariyasi va ko'p kompleks o'zgaruvchili funksiyalar nazariyasi uslublaridan foydalanilganligi matematik qat'iyatlikni ifodalaydi. Bundan tashqari, dissertatsiyada olingan natijalarning nufuzli ilmiy nashrlarda, shu jumladan impakt faktorli ilmiy jurnallarda nashr qilinganligi va ilmiy seminarlarda ishning muhokamadan o'tkazilganligi dissertatsiya natijalarining ishonchliligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada $(A)_m$ -subgarmonik va $(B)_m$ -subgarmonik funksiyalar sinflarining ustma-ust tushadigan holatlari ko'rsatilganligi, hamda $(A)_m$ -subgarmonik va $(A)_m$ -qavariq funksiyalar sinflarining orasidagi bog'liqlik aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati $(A)_m$ -subgarmonik va $(B)_m$ -subgarmonik funksiyalar sinflarining tengligi haqidagi natijalardan ko'p kompleks

o'zgaruvchili funksiyalar nazariyasida $(B)_{sh_m}$ funksiyalarni baholashda, matematik fizikadagi Monje-Amper tenglamasini qanoatlantiruvchi funksiyalar sinflarini solishtirish imkonini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiyada olingan natijalar quyidagi ilmiy tadqiqot loyihalarida foydalanilgan:

dissertatsiyada taklif qilingan $(A)_m$ -subgarmonik va $(B)_m$ -subgarmonik funksiyalarning tengligi haqidagi teoremdan Krakovdagi Yagiellonian universiteti tomonidan bajarilgan "Estimates for Monge-Ampere type equations in geometric context" nomli ilmiy loyihasida $(B)_{sh_m}$ funksiyalarni baholashda foydalanilgan (Krakovdagi Yagiellonian universitetining 2024 yil 4-sentabrdagi ma'lumotnomasi, Polsha). Ilmiy natijalarning qo'llanilishi, $(B)_{sh_m}$ funksiyalarning nostandart xossalarini isbotlash imkonini bergan.

$(A)_m$ -subgarmonik va $(B)_m$ -subgarmonik funksiyalarning tengligi haqidagi teoremdan UT-OT-2020-1 raqamli "Monje-Amper tenglamasi va ekstremal plyurisubgarmonik funksiyalar" mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida Monje-Amper tenglamasi yechimining xossalarini o'rganishda qo'llanilgan (O'zbekiston milliy universitetining 2024 yil 23-sentabrdagi 04/11-7545-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo'llanilishi, Monje-Amper tenglamasini qanoatlantiruvchi funksiyalar sinflarini solishtirish va ularning ba'zi xossalarini isbotlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining approbatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari Urganch davlat universitetining Matematik tahlil kafedrası va V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti Xorazm bo'linmasining "Kompleks potentsiallar nazariyasi va uning qo'llanilishi" birlashgan ilmiy seminarida tizimli ravishda va Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Matematik analiz kafedrası huzuridagi "Kompleks analizning zamonaviy muammolari" Respublika ilmiy seminarida muhokama qilingan. Bundan tashqari, ushbu natijalar ikkita xalqaro va uchta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida taqdim etilib, muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 1 tasi xorijiy (Scopus) va 5 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qism, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 70 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Dastlabki ma‘lumotlar”** deb nomlanuvchi birinchi bobida dissertatsiya uchun zarur bo‘lgan umumlashgan funksiyalar, differensial forma va oqimlar, gessianlar, plyurigarmonik va plyurisubgarmonik funksiyalarning xossalari, ta’riflar va teoremlar keltirib o‘tilgan.

Dissertatsiyaning **“(A)sh_m va (B)sh_m funksiyalar sinfi”** deb nomlanuvchi ikkinchi bobi (A)_m-subgarmonik va (B)_m-subgarmonik funksiyalar sinflarining ustma-ust tushish shartlarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, birinchi paragrafida (B)_m-subgarmonik funksiya hamda m-subgarmonik funksiyalarning ta’rifi va ularning xossalari keltirilgan. Mazkur bobning ikkinchi paragrafi ikki marta silliq (A)_m-subgarmonik funksiyalar va ularning ba’zi xossalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Uchinchi paragrafda (A)_m-subgarmonik va (B)_m-subgarmonik funksiyalarning tengligi haqidagi teoremlar isbotlangan. Xususan, ikki marta silliq kamayuvchi funksiyalar ketma-ketligidan foydalanib, yuqoridan yarim uzluksiz funksiyalar uchun (A)_m-subgarmonik funksiyalar sinfi kiritilgan.

1-ta’rif. Agar ikki marta silliq $u \in C^2(D)$ ($D \subset \mathbb{C}^n$) funksiya uchun (har bir tayinlangan $z^0 \in D$ nuqtada)

$$(dd^c u)^k \wedge \beta^{n-k} \geq 0, \forall k = 1, 2, \dots, n - m + 1. \quad (1)$$

tengsizliklar bajarilsa, u holda bu funksiya D sohada $(B)sh_m$ ($1 \leq m \leq n$) funksiya deyiladi.

Z.Bloskiy quyidagi teoremani isbotlagan:

1-teorema. Agar ikki marta silliq u funksiya va ixtiyoriy $v_1, \dots, v_{n-m} \in (B)sh_m(D) \cap C^2(D)$ funksiyalar uchun

$$dd^c u \wedge dd^c v_1 \wedge \dots \wedge dd^c v_{n-m} \wedge \beta^{m-1} \geq 0$$

tengsizlik bajarilsa, u holda $u \in (B)sh_m$ bo‘ladi.

Bu teorema $(B)sh_m$ funksiyalarni $(B)sh_m \cap L_{loc}^1$ sinfida aniqlash imkonini bergan.

2-ta’rif. Agar berilgan $u \in L_{loc}^1(D)$ funksiya D sohada yuqoridan yarim uzluksiz bo‘lib, har qanday ikki marta silliq $v_1, \dots, v_{n-m} \in (B)sh_m(D)$ funksiyalarni olganimizda ham hosil qilingan $dd^c u \wedge dd^c v_1 \wedge \dots \wedge dd^c v_{n-m} \wedge \beta^{m-1}$ oqim:

$$\begin{aligned} & \left[dd^c u \wedge dd^c v_1 \wedge \dots \wedge dd^c v_{n-m} \wedge \beta^{m-1} \right](\omega) = \\ & = \int u dd^c v_1 \wedge \dots \wedge dd^c v_{n-m} \wedge \beta^{m-1} \wedge dd^c \omega, \quad \omega \in F^{0,0} \end{aligned} \quad (2)$$

butun D sohada musbat, ya’ni

$$\int u dd^c v_1 \wedge \dots \wedge dd^c v_{n-m} \wedge \beta^{m-1} \wedge dd^c \omega \geq 0, \quad \forall \omega \in F^{0,0}, \quad \omega \geq 0$$

bo‘lsa, u holda u funksiya D sohada $(B)sh_m$ deyiladi.

3-ta’rif. $D \subset \mathbb{C}^n$ sohada yuqoridan yarim uzluksiz $u(z)$ funksiyaning $u|_{\Pi}$, $\dim_{\mathbb{C}} \Pi = m$ qisqartmasi $D \cap \Pi$ da subgarmonik funksiya dan iborat bo‘lsa, u holda bu funksiya D sohada m -subgarmonik $(m-sh)$ funksiya deyiladi.

Ikki marta silliq funksiyalar uchun $m-sh$ funksiya ta’rifini quyidagicha ta’riflash mumkin:

Ikki marta silliq $u(z) \in C^2(D)$ funksiya $D \subset \mathbb{C}^n$ sohaning har bir nuqtasida $(dd^c u) \wedge \beta^{m-1} \geq 0$ tengsizlikni qanoatlantirsa, ya’ni D sohaning har bir $o \in D$ nuqtasida

$$\lambda_{j_1} + \lambda_{j_2} + \dots + \lambda_{j_m} \geq 0, \quad 1 \leq j_1 < \dots < j_m \leq n$$

tengsizliklar bajarilsa, u funksiya D sohada $m-sh$ ($1 \leq m \leq n$) funksiya deyiladi.

4-ta’rif. Agar ikki marta silliq $u(z) \in C^2(D)$, $D \subset \mathbb{C}^n$ funksiya uchun D sohaning har bir nuqtasida

$$(dd^c u) \wedge \beta^{m-1} \geq 0, \quad (dd^c u)^{n-m+1} \wedge \beta^{m-1} \geq 0,$$

tengsizliklar bajarilsa, ya’ni har bir $o \in D$ nuqtada

$$\lambda_{j_1} + \lambda_{j_2} + \dots + \lambda_{j_m} \geq 0, \quad 1 \leq j_1 < \dots < j_m \leq n \quad \text{va} \quad H_o^{n-m+1}(u) \geq 0.$$

tengsizliklar bajarilsa, u holda $u(z)$ funksiya D sohada $(A)sh_m$, ($1 \leq m \leq n$) deyiladi.

2-teorema. $u \in C^2(D) \cap m-sh(D)$ bo‘lsin. Agar ixtiyoriy $v \in C^2 \cap (A)sh_m$ funksiya uchun $dd^c u \wedge (dd^c v)^{n-m} \wedge \beta^{m-1} \geq 0$ tengsizlik bajarilsa, u holda $u \in (A)sh_m$ bo‘ladi.

2-teoremaning teskarisi o‘rinli emas, ya’ni shunday $u \in C^2 \cap (A)sh_m$ va $v \in C^2 \cap (A)sh_m$ funksiyalar mavjudki, $dd^c u \wedge (dd^c v)^{n-m} \wedge \beta^{m-1} < 0$ bo‘ladi.

A.Sadullaev $m = 2$ da $(B)sh_m(D)$ va $(A)sh_m(D)$ funksiyalar sinflari ustma-ust tushishini isbotlagan va ixtiyoriy $m, (1 \leq m \leq n)$ larda ham $(B)sh_m(D) = (A)sh_m(D)$ bo‘ladimi, degan muammoni qo‘yadi.

S.Dinev tomonidan A.Sadullaev gipotezasi $n \leq 7$ va ixtiyoriy m lar uchun ijobiy ekani isbotlangan va $n \geq 11, m = 3$ bo‘lgan hollar uchun o‘rinli bo‘lmashligi ko‘rsatilgan.

2.3 paragrafning asosiy natijasi quyidagi teoremda o‘z aksini topadi:

3-teorema. $D \subset \mathbb{C}^n$ bo‘lsin. U holda

1) Sadullaev gipotezasi $n = 10, m = 3$ uchun noto‘g‘ri;

2) Sadullaev gipotezasi $n = 9, m = 3$ uchun to‘g‘ri;

3) Sadullaev gipotezasi $n = 8, m = 3$ uchun to‘g‘ri;

Shuningdek mazkur paragrafda yuqoridan yarim uzluksiz $(A)sh_m$ funksiyalar sinfi kiritilgan va ularning ba’zi xossalari isbotlangan.

5-ta’rif. Agar $D \subset \mathbb{C}^n$ sohada berilgan $u(z)$ funksiya:

1) yuqoridan yarim uzluksiz, ya’ni $\overline{\lim_{w \rightarrow z}} u(w) \leq u(z) \quad \forall z \in D$;

2) ixtiyoriy kompakt $G \subset\subset D$ soha uchun shunday monoton $u_j(z) \in (A)sh_m \cap C^2(G)$ ketma-ketlik mavjudki, $u_j(z) \downarrow u(z)$.

shartlarni qanoatlantirsa, u holda bu funksiya $D \subset \mathbb{C}^n$ sohada $(A)sh_m$ deyiladi.

$u(z) \equiv -\infty$ funksiya odatdagidek, $(A)sh_m(D)$ sinfga kiritiladi.

$(A)sh_m$ funksiyalar quyidagi xossalarga ega:

1. $(A)sh_m(D) \subset m - sh(D) \subset sh(D)$. Bundan agar $u(z) \not\equiv -\infty$ bo‘lsa, u holda $u(z) \in L_{loc}^1(D)$ bo‘lishi kelib chiqadi.

2. $psh(D) = (A)sh_1(D)$, $(A)sh_n(D) = sh(D)$.

3. $(A)sh_m \subset L_{loc}^1$, bundan esa $u(z) \not\equiv -\infty$ funksiya uchun $\{u(z) = -\infty\}$ to‘plamning Lebeg o‘lchovi nolga tengligi kelib chiqadi. Lekin $(A)sh_m \subset m - sh \subset sh$ ekanligidan ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ son uchun $\{u(z) = -\infty\}$ to‘plamning $\mathcal{H}_{2n-2+\varepsilon}$ – Hausdorff o‘lchovi ham nolga tengligi kelib chiqadi.

$(A)sh_m$ funksiyalarning yig'indisi har doim ham $(A)sh_m$ sinfga tegishli bo'lavermaydi.

Mazkur bobda $u(z) \in L^1_{loc}(D)$ funksiyalar uchun S.Dinev va A.Sadullaev teoremlari hamda 3-teoremaning analoglari isbotlangan.

4-teorema. $D \subset \mathbb{C}^n$, $1 \leq m \leq n \leq 7$ bo'lsin. U holda

$(A)sh_m(D) = (B)sh_m(D)$ tenglik o'rinli bo'ladi.

5-teorema. Ixtiyoriy $n > 2$, $m = 2$ uchun $(A)sh_m(D) = (B)sh_m(D)$ tenglik o'rinli bo'ladi.

6-teorema. $D \subset \mathbb{C}^n$ bo'lsin. U holda $n = 9$ va $n = 8$ lar uchun $(A)sh_3(D) = (B)sh_3(D)$ tenglik o'rinli bo'ladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi " **m -qavariq funksiyalar.** $(A)m - cv$ funksiyalar sinfi" deb nomlangan bo'lib, unda m -qavariq $(m - cv)$ va $(A)m - cv$ funksiyalar hamda ularning mos ravishda $(B)sh_m$ va $(A)sh_m$ funksiyalar bilan bog'liqligi o'rganilgan. Undan tashqari 3.3 paragrafda $(A)m - cv = m - cv$ va $(A)m - cv \neq m - cv$ bo'lgan holatlar o'rganilgan.

m -qavariq funksiyalar. $D \subset \mathbb{R}^n$ va $u(x) \in C^2(D)$ bo'lsin. U holda $\left(\frac{\partial^2 u}{\partial x_k \partial x_t} \right)$

matrisa simmetrik bo'ladi, ya'ni $\frac{\partial^2 u}{\partial x_k \partial x_t} = \frac{\partial^2 u}{\partial x_t \partial x_k}$. Ortonormal almashtirishlardan keyin bu matrisa quyidagi diagonal ko'rinishga keladi:

$$\left(\frac{\partial^2 u}{\partial x_k \partial x_t} \right) \rightarrow \begin{pmatrix} \lambda_1 & 0 & \dots & 0 \\ 0 & \lambda_2 & \dots & 0 \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & 0 & \dots & \lambda_n \end{pmatrix},$$

bu yerda $\lambda_j = \lambda_j(x) \in \mathbb{R}$ soni $\left(\frac{\partial^2 u}{\partial x_k \partial x_t} \right)$ matrisaning xos qiymatlari.

$H^k(u) = H^k(\lambda) = \sum_{1 \leq j_1 < \dots < j_k \leq n} \lambda_{j_1} \dots \lambda_{j_k}$ ga $\lambda = (\lambda_1, \lambda_2, \dots, \lambda_n)$ xos qiymatlarning k

o'lchamli gessian vektori deyiladi.

6-ta'rif. Agar ikki marta silliq $u \in C^2(D)$, $D \subset \mathbb{R}^n$ funksiyaning

$\lambda = \lambda(x) = (\lambda_1(x), \lambda_2(x), \dots, \lambda_n(x))$ xos qiymatlari vektori

$$H^k(\lambda(x)) \geq 0, \forall x \in D, k = 1, \dots, n - m + 1$$

tengsizliklarni qanoatlantirsa, u holda bu funksiya $D \subset \mathbb{R}^n$ sohada $m - qavariq$ ($u \in m - cv(D)$) deyiladi.

Ravshanki, $1 - cv(D) \subset m - cv(D) \subset n - cv(D) = sh(D)$. Hozirgi vaqtda $m - cv$ funksiyalar yangi yondashuv asosida, ya'ni ularni $(B)sh_m$ funksiyalar bilan bog'lanishidan foydalanib o'rganilmoqda. $\mathbb{R}_x^n$ kompleks $\mathbb{C}_z^n$ fazosining haqiqiy n o'lchovli qism fazosi, ya'ni $\mathbb{R}_x^n \subset \mathbb{C}_z^n = \mathbb{R}_x^n + i\mathbb{R}_y^n (z = x + iy)$ bo'lsin.

7-teorema. Ikki marta silliq $u(x) \in C^2(D)$, $D \subset \mathbb{R}_x^n$ funksiya D sohada $m - cv$ bo'ladi, faqat va faqat shu holdaki, qachonki $y \in \mathbb{R}_y^n$ o'zgaruvchiga bog'liq bo'lmagan $u^c(z) = u^c(x + iy) = u(x)$ funksiya $D \times \mathbb{R}_y^n$ sohada $(B)sh_m$ funksiyadan iborat bo'lsa.

$m - psh$ funksiyalar. $(A)m - qavariq$ funksiyalar sinfini ta'riflashda m o'lchovli $\forall \Pi \subset \mathbb{R}^n$, $\dim_{\mathbb{R}} \Pi = m$ tekisliklardagi qisqartmasi subgarmoniklik xossasiga ega bo'lgan $m - plyurisubgarmonik$ funksiyalar deb nomlanuvchi funksiyalar sinfi kerak bo'ladi.

7-ta'rif. $u(x)$ funksiya $D \subset \mathbb{R}^n$ sohada berilgan bo'lsin. Agar bu funksiya quyidagi

$$1) D \text{ sohada yuqoridan yarim uzluksiz, ya'ni } \overline{\lim_{x \rightarrow x^0}} u(x) \leq u(x^0);$$

$$2) \text{ Har bir } m - \text{o'lchovli haqiqiy } \Pi \subset \mathbb{R}^n (\dim_{\mathbb{R}^n} \Pi = m) \text{ tekislik uchun } u|_{\Pi} \in sh(\Pi \cap D)$$

shartlarni qanoatlantirsa, u holda $u(x)$ funksiya D sohada $m - plyurisubgarmonik(m - psh)$ ($m - \text{o'lchovli haqiqiy tekisliklarda subgarmonik, bunda } 1 \leq m \leq n$) deyiladi.

$m - psh(D)$ funksiyalar subgarmonik bo'ladi va shuning uchun bunday funksiyalar subgarmonik funksiyalarning barcha xossalarini qanoatlantiradi.

$m - psh$ funksiya ta'rifidan quyidagi tasdiq kelib chiqadi:

Agar ikki marta silliq $u \in C^2(D)$ funksiyaning $\lambda = \lambda(x) = (\lambda_1(x), \lambda_2(x), \dots, \lambda_n(x))$ xos qiymatlari vektori $\lambda_{j_1}(x) + \lambda_{j_2}(x) + \dots + \lambda_{j_m}(x) \geq 0$, $1 \leq j_1 < \dots < j_m \leq n$ tengsizliklarni qanoatlantirsa, u holda u funksiya $m - psh$ funksiyadan iborat bo'ladi.

$(A)m - cv$ funksiyalar.

8-ta'rif. Agar ikki marta silliq $u \in C^2(D)$ funksiyaning $\lambda = \lambda(x) = (\lambda_1(x), \lambda_2(x), \dots, \lambda_n(x))$ xos qiymatlari vektori $\lambda_{j_1}(x) + \lambda_{j_2}(x) + \dots + \lambda_{j_m}(x) \geq 0, 1 \leq j_1 < \dots < j_m \leq n$ va $H^{n-m+1}(\lambda(x)) \geq 0, \forall x \in D$ tengsizliklarni qanoatlantirsa, u holda bu funksiya $D \subset \mathbb{R}^n$ sohada $(A)m - cv$ qavariq ($u \in (A)m - cv(D)$) deyiladi.

Shunday qilib, $(A)m - cv$ funksiya bu $H^{n-m+1}(\lambda(x)) \geq 0$ qo'shimcha shartga ega bo'lgan m -plyurisubgarmonik funksiya ekan. Ta'rifdan ko'rinadiki, $(A)1 - cv$ funksiya qavariq funksiyalar sinfi bilan, $(A)n - cv$ funksiyalar esa subgarmonik funksiyalar sinfi bilan ustma-ust tushadi

$(A)m - cv$ funksiyalar bilan $(A)sh_m$ funksiyalar orasidagi bog'liqlikni ifodalash uchun $\mathbb{C}_z^n, z = x + iy, \mathbb{C}_z^n = \mathbb{R}_x^n \times i\mathbb{R}_y^n$ kompleks fazodagi haqiqiy $\mathbb{R}_x^n$ fazo qaraladi. U holda quyidagi teorema o'rinli:

8-teorema. Ikki marta silliq $u(x) \in C^2(D), D \subset \mathbb{R}_x^n$ funksiya D sohada $(A)m - cv$ bo'ladi, faqat va faqat shu holdaki, qachonki $y \in \mathbb{R}_y^n$ o'zgaruvchiga bog'liq bo'lmagan $u^c(z) = u^c(x + iy) = u(x)$ funksiya $D \times \mathbb{R}_y^n$ sohada $(A)sh_m$ funksiyadan iborat bo'lsa.

3.2-paragrafda $u(x) = \ln(x_1^2 + x_2^2 + \dots + x_n^2)$ funksiya $(A)m - cv$ likka tekshiriladi va quyidagi xulosaga kelinadi:

1-tasdiq. $u(x) = \ln(x_1^2 + x_2^2 + \dots + x_n^2)$ funksiya $n - \left\lfloor \frac{n}{2} \right\rfloor + 1 \leq m \leq n, n \geq 2$

bo'lganda $m - cv$ va $(A)m - cv$ funksiyadan iborat. $m < n - \left\lfloor \frac{n}{2} \right\rfloor + 1, n \geq 2$

bo'lganda esa bu funksiya $m - cv$ ham, $(A)m - cv$ ham bo'la olmaydi.

3.3 paragrafda oldingi bobdagi kabi $m - cv$ va $(A)m - cv$ funksiyalar sinflari ustma-ust tushishi haqidagi savol qaraladi va quyidagi teoremlar isbotlanadi:

9-teorema. $D \subset \mathbb{R}^n$ bo'lsin. U holda

$$(A)2 - cv(D) \cap C^2(D) = 2 - cv(D) \cap C^2(D)$$

tenglik o'rinli bo'ladi.

10-teorema. $D \subset \mathbb{R}^n, 1 \leq m \leq n \leq 7$ bo'lsin. U holda

$$(A)m - cv(D) = m - cv(D) \cap C^2(D)$$

tenglik o'rinli bo'ladi.

11-teorema. $D \subset \mathbb{R}^n$ bo'lsin. U holda $n = 9$ va $n = 8$ uchun $(A)3 - cv(D) = 3 - cv(D) \cap C^2(D)$ tenglik o'rinli bo'ladi.

$n = 10, m = 3$ bo'lgan holda $(A)m - cv$ va $m - cv$ funksiyalar sinflari ustma-ust tushmaydi, ya'ni $n \geq 10$ larda bu sinflar turli xil bo'ladi.

XULOSA

Dissertatsiya ishi $(A)sh_m$, $(B)sh_m$ hamda $(A)m - cv$ va $m - cv$ funksiyalar sinflarini o'rganishga bag'ishlangan.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1) $n = 10, m = 3$ da $(A)sh_m(D) \cap C^2(D)$ va $(B)sh_m(D) \cap C^2(D)$ sinflar ustma-ust tushmasligi ko'rsatilgan;

2) $n = 9, n = 8, m = 3$ bo'lgan hollarda bu sinflar ustma-ust tushishi isbotlangan va Dinev teoremasi natijalari to'ldirilgan;

3) Yuqoridan yarim uzluksiz funksiyalar uchun $u \in (A)sh_m(D)$ sinf o'rganilgan. Bunday funksiyalarning ba'zi muhim xossalari isbotlangan;

4) $(A)sh_m$ funksiyalar sinfi chiziqlilik xossasiga ega emasligi misol yordamida, ya'ni ikkita $(A)sh_m$ funksiyalar yig'indisi hamma vaqt ham $(A)sh_m$ funksiyadan iborat bo'lmasligi ko'rsatilgan;

5) $(A)sh_m \subset (A)sh_{m+1}$ munosabat $n = 11, m = 3$ uchun noto'g'riligi ko'rsatilgan;

6) S.Dinev teoremasining analogi, ya'ni $1 \leq m \leq n \leq 7$ bo'lgan hollarda $(A)sh_m(D) = (B)sh_m(D)$ tenglik o'rinli ekanligi isbotlangan;

7) A.Sadullaev teoremasining analogi, ya'ni ixtiyoriy $n > 2, m = 2$ lar uchun $(A)sh_m(D) = (B)sh_m(D)$ tenglikning to'g'riligi isbotlangan;

8) $n = 9, n = 8$ va $m = 3$ bo'lgan hollarda $(A)sh_m(D) = (B)sh_m(D)$ tenglikning o'rinliligi isbotlangan;

9) $m - psh$ funksiyalar yordamida $(A)m - qavariq ((A)m - cv)$ funksiyalar aniqlangan va ularning muhim xossasi isbotlangan;

10) $(A)m - cv$ funksiyalar bilan $(A)sh_m$ funksiyalar orasida bog'liqlik o'rnatilgan;

11) $u(x) = \ln(x_1^2 + x_2^2 + \dots + x_n^2)$ funksiya misolida $n - \left\lfloor \frac{n}{2} \right\rfloor + 1 \leq m \leq n, n \geq 2$ bo'lganda bu funksiyaning $(A)m - cv$ va $m - cv$ funksiya bo'lishi, $m < n - \left\lfloor \frac{n}{2} \right\rfloor + 1, n \geq 2$ bo'lganda esa bu funksiya $m - cv$ ham, $(A)m - cv$ ham bo'lmasligi isbotlangan;

12) $m = 2$ uchun $(A)m - cv(D) \cap C^2(D) = m - cv(D) \cap C^2(D)$ tenglik to'g'riligi haqidagi A.Sadullayev teoremasining analogi isbotlangan;

13) $1 \leq m \leq n \leq 7$ bo'lganda

$$(A)m - cv(D) \cap C^2(D) = m - cv(D) \cap C^2(D)$$

tenglik o'rinli bo'lishi haqidagi S.Dinev teoremasining analogi isbotlangan;

14) $n = 9$ va $n = 8$ uchun $(A)3 - cv(D) = 3 - cv(D) \cap C^2(D)$ tenglik o'rinli bo'lishi haqidagi teorema isbotlangan;

$$15) \quad u(x_1, x_2, \dots, x_{10}) = -\sum_{j=1}^2 x_j^2 + 2\sum_{j=3}^{10} x_j^2 \text{ funksiya} \quad \text{misolida} \quad n = 10, m = 3$$

uchun $(A)m - cv$ va $m - cv$ funksiyalar sinflari turlicha ekanligi ko'rsatilgan.

Umuman olganda, olingan natijalar dissertatsiya tadqiqotining belgilangan maqsadiga erishilganligini, $(A)sh_m(D)$ va $(B)sh_m(D)$ sinflar, shuningdek, $(A)m - cv(D)$ va $m - cv(D)$ sinflarining ustma-ust tushishi yoki tushmasligi har tomonlama aniqlanganligini ko'rsatadi. Natijalar tegishli misollar yordamida to'liq o'rganildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.FM.55.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

КАЛАНДАРОВА ДИЛДОРА АБДУЛЛАЕВНА

ЭКВИВАЛЕНТНОСТЬ ФУНКЦИЙ $(A)sh_m$ И $(B)sh_m$

01.01.01 – Математический анализ

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по физико-математическим
наукам**

Ургенч – 2025 г.

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2024.2.PhD/FM1048.

Диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.ik-mat.urdu.uz) и на информационно образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Абдуллаев Бахром Исмаилович
доктор физико-математических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Шоимкулов Баходир Аллабердиевич
доктор физико-математических наук, профессор
Атамуратов Алимардон Абдиримович
кандидат физико-математических наук, старший научный сотрудник

Ведущая организация:

Каракалпакский государственный университет

Защита диссертации состоится « 01 » Март 2025 года в 16 : 00 на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.FM.55.01 Ургенчском государственном университете. (Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х. Алимджана, 14. Тел.: (+998 62) 224 66 11, факс: (+998 62) 224 67 00, e-mail: ik-mat.urdu@umail.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета. (зарегистрирована за № D-765). (Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х. Алимджана, 14. Тел.: (+998 62) 224 66 11, факс: (+998 62) 224 67 00). e-mail: arm@urdu.uz

Автореферат диссертации разослан « 17 » сентября 2025 года.

(протокол рассылки № 2 от « 17 » сентября 2025 года).



Г.У. Уразбоев

Заместитель председателя Научного совета
по присуждению ученых степеней, д.ф-м.н.

А.А. Реймбергенов

Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, к.ф-м.н.

Б.А. Бабажанов

Председатель Научного семинара при
научном совете по присуждению ученых
степеней, д.ф-м.н.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

